

XIV-XVIII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO CHOLG'ULARI

*Qo'qon davlat universiteti "Cholg'u
ijrochiligi "kafedrası Professional
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Nabiyeva Farog'atxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda foydalanilgan va ixtiro qilingan cholg'ular va Darvesh Ali Changiy, Kavkabiy, Navoiy Marog'iy risolalaridagi musiqiy cholg'ular haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maqom, Navoiy, Marog'iy tanbur, chang lyutnya, arfa, barbat, Vosifiy ugab, pan, mim, avlos

XIV–XVIII asrlar Markaziy Osiyo musiqa madaniyati juda boy va rang-barang davr hisoblanadi. Bu davrda cholg'u asboblari nafaqat san'at, balki saroy hayoti, marosimlar va xalq urf-odatlarining ajralmas qismi bo'lgan. Xususan Temuriylar davrida musiqa madaniyati yaxshi rivojlana boshlagan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida O'rta Osiyoda adabiyot va san'at, jumladan musiqa temuriylar ijtimoiy hayotida, ayniqsa Samarqandda muhim o'rin tutgan. Bundan tashqari shu davrlarda yashab ijod qilgan shaxslar, Najmiddin Kavkabiy, Alisher Navoiy o'z risolalarida musiqa nazariyasi va ma'lum bir cholg'u asboblari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tgan. Shu davrlarda keng qo'llanilgan chang, arfa, doira, lyutnya, barbat, ud, qonun, g'ijjak, soz, rubob, tanbur kabi cholg'ular XV-XVI asr miniatyuralarda ham tasvirlangan. Firdavsiyning «Shohnoma» asari XIV asr musavvir Muhammad Muqum Xisrav oldida ud chalayotgan VI asr cholg'uchisi Barbadni tasvirlagan. Asardan cholg'ularning ikki guruhga - xonakii cholg'ulari, ya'ni chang, rud, lyutnya, fleyta, nay va shovqin damli cholg'ulari, ya'ni karnay litavralar, buben, baraban, gongga bo'linganligi ma'lum bo'ladi. XIV asrda yashab ijod qilgan Abdul Fazl Bayhaqiy asarlarida torli mizrobli, ya'ni rud, barbad tanbur damli va urma zarbli cholg'ular, ya'ni karnay, litavra va baraban singlarilarning nomlari keltirilgan. "Zafarnoma" deb nomlangan yana bir miniatyurada Amir Temurning safarga chiqishi negizida dutor cholg'usi tasvirlab o'tilgan. XV asr o'rtalarida ko'chirilgan "Shohnoma"ning nusxasidagi miniatyura parchasida chang, ud, tanbur va rubob cholg'ulari aks ettirilgan. Bu asr miniatyuralarida nay cholg'usi xalq cholg'ulari xonaki ansamblida tasvirlangan. Bu cholg'uning maftunkor jarangidan ta'sirlangan XVIII asrda yashab ijod qilgan Jaloliddin Rumiy nayga bag'ishlab "Nay qo'shig'i" nomli she'r bitganligi haqida adabiy manbalarda keltirilgan.

O'rta asrlarda foydalanilgan cholg'ularning ta'rifini shu davrda yashab ijod qilgan bir nechta shoir va olimning risolalari balki adabiy asarlarida ko'rishimiz

mumkin. Alisher Navoiy o'zining "Sabbai sayyor" ya'ni "Hamsa" dostonlaridan birida chang cholg'usi haqida so'z boradi. Bunda asar qahramoni chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usining ovozini eshitganda dil yayraydigan, qalbg'a xotirjamlik xis qildirib, ruhni davolaydigan shifobaxsh musiqa timsoli sifatida g'aydalantirgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan. Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'uchilarini o'z asarlarida Firdavsiy - Ozoda, Navoiy - Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb atashgan. Shu davrning mohir ijrochisi Vosifiy o'z "Esdalik"larida ud, nay, g'ijjak, tanbur, qonun, qobiz chalishda katta mahoratga ega edi. U o'zining risolasida treldak ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdudlo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan Vosifiy shuningdek Hasan nay, Qul Muhammad uddiy, Axmad g'ijjakiy, Ali Quchoq tanburiy kabi cholg'uchilarning nomini qayd etgan.¹ Shunday kilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy shakllarining barqarorligini tasdiqlovchi boy qo'llanma berilgan. Temuriylar davri va keyingi ikki yuz yillik davr kitob miniatyurasi xalq cholg'ulari ansamblining quyidagi ikki turi bo'lganligi haqida shahodat beradi. Jumladan: 1) doira va nay jo'rligida chertma torli ansambl, jumladan xonaki ko'rinishdagi; 2) damli va urma zarbli cholg'ular, ya'ni karnay, surnay, bo'lamon, doira, nog'ora ansambli.² Safi ad-Din qonunning ikki xil turi mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Qonun so'zi yunonchadan olingan bo'lib tovushqatori bir torli qilib tuzilgan "monoxord" ga berilgan nomdan kelib chiqqan. Shuningdek "monoxord" cholg'usi arab xalqi ijodiy amaliyotida "qonun" nomi bilan ko'p tanilgan. XIV asrlarda yaratilgan qonun cholg'usi arab musiqashunoslarining aytishicha Ussuriya poytaxtidan topilgan. Qonunning uzunchoq shakli, yoysimon, to'rtburchak, shakllari bo'lgan va bular fil suyagidan yasalgan qutilarga chizilgan. Buyuk olim Farmerning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida bu cholg'u olxo'ri daraxti yog'ochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki, ya'ni yo'g'on tovush beradigan tomoni 81 santimetr, qarama-qarshi tomoni 40,5 santimetr 88 ekanligi yozilgan. O'n uchta uchtdan iborat tori bo'lgan.³

XVII asrlarda cholg'ular uchun maxsus kuylar yozilmagan. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan. XV asrda yashab ijod qilgan Jomiyning "musiqa haqida risola"sida keltirilgan ud dastasining chizmasi uni sozga tushirish haqida to'liq ma'lumot beradi. Ularning aytishicha qadimiy musiqaning asosi o'n ikki moqomdir. Abdulqodir Marog'iyning "kanz al-Tuxaf" risolasida rubob va g'ijjak yasash usuli haqida yozgan. Marog'iyning

¹ «Temur va Ulug'bek davri tarixi». Toshkent. Qomuslar bosh taxririyyati, 1996-yil

² "Musiqqa cholg'ulariva cholg'usozlik tarixi" U.K. Rahmonov.

³ "Cholg'ushunoslik" O'. Toshmatov X. Beknazarov.

ta'kidlashicha ipak yoki pay torlar jez torlarga nisbatan ancha mayin va yaxshi ohang chiqarishi mumkin ekan. XV asr Boburning ma'lumotlariga qaraganda bastakor Qul Muhammad Uddiy tomonidan g'ijjakning uchinchi tori joriy etilgan. Mashhur olim Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli kitobida shunday yozadi: "Bu ham yoy bilan chalinadir. Chanog'i Hindiston javzidir. Tut yog'ochidan, ma'dandan ham yasalsa bo'ladi. Sopi 40 – 42 santimetr qadar uzunlikda bir yog'ochdir. Chanoqdan tuban 20-23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug'i bor. Chanog'i qalin teri bilan qoplanadir. Xarrak butun cholg'ularga teskari, chanoqning yuqori tomoniga qo'yiladi, tori uchtaadir".⁴ U Darvesh Ali (XVII asr) "Musiqqa haqida risola" asarida musiqqa cholg'ularining tuzilishini bayon qilgan, "Rubob torli musiqqa. O'rta Osiyoda 59 Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo'q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo'lib, ulardan to'rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi", - deb yozadi. "Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrug) ning Qashqar degan joyi nomi bilan bog'liq".⁵ Dutor cholg'usi haqidagi ilk ma'lumotlar XV asrda yaratilgan Al-Xusayniyning musiqqa kanonlarida uchraydi. "Dutor" atamasining shakllanishi qo'sh torli cholg'u bo'lganligi sababli uni boshqa cholg'ulardan farqlashga asos bo'lgan. Darvish Ali Changiyning risolalariga nazar soladigan bo'lsak XVI asrda Buxoroda yaratilgan risolasida mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshi cholg'u ud haqida so'z yuritilib, uni cholg'ular shohi deb ataydi va udni juft sozlangan o'n ikki tori bo'lgan. Bu Forobiy davridagi ud cholg'usidan ancha farq qilgan. Besh torli ud XIII asrgacha foydalanilgan va uning oltinchi tori "muxtalif" simi XIV-XV asrlarda qo'yilgan va sozning yaxshi jaranglashini ta'minlagan. Darvish ali Changiyning ma'lumotlarida chang cholg'ulari homiysi –Zuhraga bag'ishlangan bo'lib bu changning yetti maqom uchun yigirma oltita tori va yetti pardasi bo'lgan. Lyutnya cholg'usi o'ziga xos mizrobli cholg'u hisoblangan, chertma vositasida chalingan, dastasida esa ligatura, ya'ni ladalar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi.

Eng qadimgi cholg'ulardan biri bu damli cholg'ular guruhidir. Fleyta, nay va tilli trosli puflab chalinadigan cholg'ular to'g'ri tekis slindirsimon teshik nay yoki konussimon ba'zida esa teskari konussimon bo'lgan. Fleytaning pan deb nomlangan turi naychalar sonining uzun qisqaligiga qarab turli tovushlar hosil qilingan. Undagi hamma teshiklar yopilishi nay havo ustunining to'liq tebranishini tashkil qilgan. Qadimgi Misrda fleytaning to'g'ri naychalisi "mim" deb atalgan va besh teshikli yonlamasi bo'lgan. To'g'ri ushlab chalinadigan ochiq fleyta Palastinda "ugab" deyilgan. Xitoyda esa pan fleytasining boshqacha ko'rinishi "pasyso" olti teshikli

⁴ Cholg'ushunoslik" O'.Toshmatov X.Beknazarov

⁵ "Cholg'ushunoslik" O'.Toshmatov X.Beknazarov.

to'g'ri naychali fleyta "syao", xuddi shunaqa bambukdan yasalgan yonlama fleyta "di" deyilgan. Shu qatorda, olti teshikli sopoldan yasalgan "syuan" fleytasi ham bo'lgan. Hindistonda yonlama fleyta "vansha", to'g'ri fleyta "layyu" keng foydalanilgan. Samarqanddagi Mo'minobod qishlog'idan topilgan, milloddan besh ming yil oldingi suyakdan yasalgan besh teshikdan iborat nay shu davrda bu cholg'uning O'rta Osiyoda ham keng qo'llanganligidan dalolat beradi. Qadim grek xalqining sevimli cholg'usidan biri avlos bo'lib, to'g'ri konus tusida naychadan iborat 3-4 yoki 6 teshikli qo'sh tilli cholg'u hisoblangan. Cholg'uchi bir vaqtning o'zida ikkita avlosda xuddi Markaziy Osiyo cholg'usi qo'shnay yoki qo'sh bulamon singari chalgan va bir avlosda kuy ijro qilinsa keyingisida o'zgarmaydigan ohang jo'r bo'luvchi cho'zib turgan.

Ma'lumki rus hukmdorlari maxsus farmonlar bilan XV asrdan XIX arsgacha "skromoxlar" deb ataluvchi sayoq cholg'uchilarga qarshi kurashib kelganlar. Cherkov ayonlari "shayton cholg'ular" deb atashgan. Bu cholg'uda odamlarni dindan qaytaradigan musiqa chalinadi deb faraz qilishgan. Balalayka cholg'usi ta'qibchilarni chalg'itish maqsadida turi o'zgartirilgan dombra cholg'usidir.

Jahon xalqlari musiqa madaniyatida, jumladan, Markaziy Osiyo musiqiy hayotida cholg'ularning o'z o'rnini bor. Urma cholg'ular uzoq tarixga ega bo'lib, ular asrlar davomida umumjamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimgi va keng tarqalgan urma cholg'ulardan biri nog'oradir. Bu cholg'uning asta-sekin mazkur xalqlar, ularning qavm va qabilalari orasida paydo bo'lib, tarqalib ketishida ayollarning o'rnini va xizmati katta bo'lgan. Muzlik bosqichi davrida evropaning «Mustg'e» (fransiya g'ori) davrida g'orlar ichida yashab, o'z uy yumushlarini shu yerning o'zida bajarishgan. Ayollar cholg'u yasash maqsadida emas, balki kiyim tayyorlash maqsadida xayvon terisiga ishlov berganlar, so'ngra uni xumsimon katta yog'och kundaga quritish uchun tashlab qo'yganlar. G'orlardagi quruqlik va issiqlik tahsirida yog'och kundalarga terining yelimsimon moddasi yopishib qolishi natijasida qurishi ham tezlashgan. Oqibatda, kovak kundaga yopishgan teri haqiqiy nog'orasimon sas chiqarib, diqqatni jalb etgan holda urma cholg'u mavqeini egallab qolgan.⁶

XIV–XVII asrlar Markaziy Osiyo musiqa madaniyati tarixida alohida o'rin egallaydi. Bu davrda cholg'u asboblari nafaqat ijro vositasi sifatida, balki xalqning ma'naviy, estetik va madaniy hayotining muhim qismi sifatida shakllandi va rivojlandi. Ayniqsa, Amir Temur va uning vorislari davrida ilm-fan va san'atga berilgan e'tibor natijasida musiqa san'ati yuqori bosqichga ko'tarildi. Mazkur davrda torli, puflama va urma cholg'ular mukammallashib, ularning tuzilishi, tovush imkoniyatlari va ijro

⁶ "CHOLG'USHUNOSLIK ASOSLARI" amaliy uslubiy qo'llanma S.B.SAIDIY.

uslublari sezilarli darajada rivojlandi. Dutor, tanbur, rubob, nay, karnay, surnay va doira kabi cholg'ular nafaqat saroylarda, balki xalq orasida ham keng tarqaldi. Bu esa musiqa san'atining jamiyatning barcha qatlamlariga singib ketganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu davrda musiqa nazariyasi ham chuqur o'rganildi. Abdulqodir Marog'iy kabi olimlarning ilmiy merosi cholg'u asboblari, maqom tizimi va ijrochilik an'analarini ilmiy asosda yoritib berdi. Natijada musiqa faqat amaliy san'at emas, balki ilmiy yo'nalish sifatida ham shakllandi. Maqom san'ati aynan shu davrlarda rivojlanib, murakkab va mukammal tizimga aylandi. Cholg'u asboblari esa maqom ijrosining ajralmas qismiga aylanib, har biri o'ziga xos badiiy vazifani bajardi. Tanbur va nay chuqur falsafiy ohanglarni ifodalagan bo'lsa, doira va nog'ora ritmik asosni ta'minladi. XIV–XVII asrlarda musiqa va cholg'ularning jamiyatdagi o'rni ham kengaydi. Ular:

- saroy marosimlarida,
- xalq bayramlarida,
- to'y va tantanalarda,
- diniy va tasavvufiy marosimlarda faol qo'llanildi. Bu esa cholg'ularning faqat san'at emas, balki ijtimoiy va ruhiy hayotning muhim elementi bo'lganini ko'rsatadi. Umuman olganda, XIV–XVII asrlar Markaziy Osiyo cholg'u madaniyati bugungi o'zbek milliy musiqa san'atining mustahkam poydevorini yaratdi. Bu davrda shakllangan cholg'ular, ijrochilik uslublari va musiqiy an'analar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va milliy meros sifatida qadrlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. «Temur va Ulug'bek davri tarixi». Toshkent. Qomuslar bosh taxririya, 1996-yil
2. «Musiqa cholg'ulari va cholg'usozlik tarixi» U.K. Rahmonov.
3. «Cholg'ushunoslik» O'. Toshmatov X. Beknazarov.
4. »CHOLG'USHUNOSLIK ASOSLARI» amaliy uslubiy qo'llanma S.B.SAIDIY